

# JONAJON O'ZBEKISTONIM, MANGU BO'L OMON!

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N: 37 (67254)  
2019-yil 16-sentyabr




www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN-2010-6092

## O'ZBEKISTONNING «OLTIN FONDI»

Prezident maktablaridagi o'quvchilar kelgusida O'zbekiston taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadigan kuchga aylanadi



Xabaringiz bor, poytaxtimizda dastlabki Prezident maktabi qurib bitkazildi. Joriy yilda maktabning 5-10-sinflariga 144 nafar o'quvchi qabul qilindi. Yaqinda Davlatimiz rahbari mazkur ta'lim dargohiga tashrif buyurib, o'quv maskanida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi. Prezident o'quvchilar bilan suhbat-

lashar ekan, «Sizlar endi O'zbekistonning «Oltin fondi» bo'ldingiz», deya ta'kidledi.

Davlatimiz rahbari tashrif davomida Prezident maktabining faxriy mehmonlar kitobiga dastxat yozib qoldirdi. Unda bilimga chanqoq ushbu o'quvchilarga quyidagicha ishonch bildirdi:

«Men ishonaman, bu maskanlar jonajon O'zbekistonimizning ertangi taqdirini o'z qo'liga olishga, globallashuv davrida keskin bellashuv va raqobatlarida g'olib bo'lishga qodir shaxslarni – yangi Xorazmiylar, Farg'oniylar, Beruniylar, Ulug'beklarni tarbiyalab yetishtiradi».



# BOBOLARGA MUNOSIB FARZAND BO'LAYLIK

**Kuzning ilk kunlari. Odatdagiday ishga kelayotsam, Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktabining ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Tolmas Azimovni ko'rib qoldim. Uchrashuv bahona yangi o'quv yili boshlanganligi bilan bir-birimizni tabrikladik.**

– Opa, yozuvchi, shoir, turli soha vakillari bilan uchrashuv tashkil qilmoqchi edim, rahbarimiz Muhayyo opa Boymatova bilan ham shu haqda gaplashgandik.

di, ishlaringiz ko'p emasmi, degan so'rovimga esa: Ma'naviyat saboqlari bizga hamisha olam-olam zavq bag'ishlaydi, – deya javob qildi ustoz.



**Kuni kecha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi tashkil etilganligi haqidagi Farmonning imzolanganligi bizni yanada quvontirdi, – deydi Olmazor tumanidagi 119-umumta'lim maktabining rahbari Nilufar Yo'ldosheva.**

Sizga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'lib turgandim, – deb qoldi Tolmasjon bosiqlik bilan

Uchrashuv soatini tayin qilib ishxonaga kelsam, yana bir necha maktablar tahririyat



**Maktabning 5-sinf o'quvchilari Ruxshona Abduljalilova, Zilola Shomurodova, Mumtozabonu Faxriddinovani «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilari yaxshi tanishadi. Ularning ijod namunalari gazetamizda tez-tez chop etiladi. Zilola Shomurodova o'z she'rini yo'llab, Prezidentimizdan maktub olgan qiz, deya ta'riflansa, Mumtozabonu esa nafaqat maktabda, balki gazetamizda e'lon qilinadigan respublika tanlovlarida g'olib bo'lgan. Robiya Hayitboyeva, Oysha Saidakbarova, Diyora Ma'murjonova, 6-sinf o'quvchisi Durdona Hikmatovaning ijodiy ishlari ham talaygina. Bu ijodkor o'quvchilar ijod maktabiga qabul qilinganini ko'rib, tahririyat xodimlari nihoyatda quvondilar.**

gap boshlab. – Qaysi kuni kelaylik, – dedim bu taklifdan xursand bo'lib. – Ertaga, – dedi u hozir javoblik bilan. – O'quv yili endi boshlan-

xodimlarini uchrashuvlarga taklif qilishibdi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, adib, publitsist Ashurali Jo'rayev bilan avval Olmazor tumanidagi Abdulla Qodiriy

nomidagi ijod maktabiga hamda Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktablariga o'quvchilar bilan ma'naviyat darslarini o'tish uchun yo'lga chiqdik. Eshikdan kiraverishdan har bir o'quvchining salom berib kutib olishidan juda xursand bo'ldik. Zero, ba'zi maktablarda kattalarga salomni-yu yo'l berishni unutib qo'yayotgan o'quvchilar ham uchrab turadi-da. Maktab direktori, pedagogika fanlari dotsenti Nilufar Yo'ldosheva bizlarni iliq kutib oldi.

– Abdulla Qodiriy birinchi o'zbek roman-navisi, – so'z boshladi maktab rahbari bizlarni suhbatga chorlarkan. – Dunyo adabiyotida o'zbek roman-chiligining yaratilishi Qodiriy nomi bilan bog'liqligi barcha adabiyot ixlosmandlariga yaxshi ma'lum. Buyuk bobomizning ijodga, o'z Vatanga, xalqiga, oilaga, farzandlariga munosabati barcha-barchaga ibratli. Adib nomidagi ijod maktabining tashkil etilishi barchamiz uchun sharafli. Bu maktabning nomini o'z ijod ishlaringiz bilan oqlashimiz zarur. Ana shu munosabat bilan 500 nafar o'quvchi hujjat topshirgan bo'lsa, ulardan 120 nafari tanlab olindi. Qodiriyga munosib izdoshlar yetishib

chiqishiga tilakdoshmiz, – deya niyat bildirdi Nilufar opa. So'ngra, sinflarga kirib, ochiq mashg'ulotlarni kuzatdik. O'quvchilar Ashurali Jo'rayevning kitob mutolaasiga bag'ishlangan suhbatla-

rini berilib tinglashdi, o'zlarini qiziqtirgan savollarga tegishli javoblar olishdi. 5–8-sinflarda bo'lgan muloqotda to'garaklar tashkil etish, bu to'garaklarda tahririyat xodimlari mashg'ulotlar o'tishi taklifi ham berildi.

Keyingi uchrashuvimiz Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktabida bo'ldi. 7–8-sinf o'quvchilari yig'ilgan faollar zalida boshlangan suhbatimiz mutolaa-ga, bilim olishning ahamiyati haqida bordi. Ashurali



**7-sinf o'quvchilari bilan muloqot savol-javoblarga boy tarzda o'tdi.**

siz, degan savoliga, albatta, kasbga intilish yoshlikdan boshlanadi. 25 yoshgacha inson egallagan kasbidan yutuqlarga erisha boshlashi kerak, degan javobni oldi. Mehmonlar tomonidan mutolaaning inson hayotida beqiyos ahamiyat kasb etishi, shuningdek, qo'shimcha hunar o'rganish koni foyda ekanligi hayotiy misollar yordamida tushuntirib berildi. Ikki soatga yaqin davom etgan suhbat chog'ida o'quvchilarda zerikishni

Keyingi uchrashuvimiz Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktabida bo'ldi. 7–8-sinf o'quvchilari yig'ilgan faollar zalida boshlangan suhbatimiz mutolaa-ga, bilim olishning ahamiyati haqida bordi. Ashurali



**Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 157-umumta'lim maktabining o'quvchilari – Hosilbek Mamatqodirov, Bekmurod Tolibjonov, Xurshid Habibullayev, Diyorbek Karimov, Habibullo Mamajonov a'lo baholarga o'qishi bilan bir qatorda, «Oqtepa» futbol jamoasining o'yinchilari ham sanalishadi.**

Jo'rayevga savol beruvchi o'quvchilar ham juda ko'p ekan. 8-«B» sinf o'quvchisi Zamira Toshpo'latovanning «Qaysi insondan ibrat olib yashayapsiz?» degan savoliga, ustoz bilimdon, rassom, aktyor, qo'shiqchi Botir Zokirovning matonatidan, deya javob berib, «Yurak bo'ronlari» kitobimni o'qisangiz, Botir Zokirovning hayot yo'li bilan yaqindan tanishasiz, deb maslahat berildi. Shuningdek, 7-«A» sinf o'quvchisi Hojiakbar Nurillayev kasb tanlashga qachondan e'tibor qaratgan-

sezmadik, aksincha, Tolmasbek aytgandek, bolalarning ma'naviy ozuqa olayotganlari yonib turgan ko'zlarida va qiziquvchanliklarida aks etib turardi. Tadbir nihoyasida she'r, rasm chizgan o'quvchilar o'z ijodiy ishlarni bizlarga topshirishdi. Gazetamizning keyingi sonlarida A. Qodiriy ijod maktabi hamda 157-umumta'lim maktabi o'quvchilarining ijodiy ishlari, albatta, chop etilishini aytishni unutmadik.

O'z muxbirlarimiz



**Ikki xonali sonni ikki xonali songa bir necha soniyada yodda ko'paytira olasizmi? Buning uchun oddiygina arifmetik mashqni e'tiboringizga havola etamiz.  $32 \times 11 = ?$  Bu hisobni amalga oshirish uchun 1 va 2 raqamlarni qo'shamiz:  $3+2=5$ . Hosil bo'lgan sonni 3 va 2 raqamlari orasiga joylashtiramiz: natija 352. Yana bir misol:  $53 \times 11 = ?$   $5+3=8$  javob 583. Siz har qanday sonni bir necha soniyada miyada qo'shish, ayirish, bo'lishni ham o'rganishni istarmidingiz?**

bolaning miyasi nisbatan katta hajmdagi axborotni qiyinchiliksiz qayta ishlay oladi. Shuningdek, diqqatni jamlash, esda saqlab qolish, tinglash va kuzatuvchanlik, tasavvur qilish kabi xarakterlari shakllanib boradi. Bolalarning ijodiy qobiliyati yuzaga chiqadi. Mashg'ulot jarayoni-

ikki asosiy – 5–7 yoshdagi bolalar uchun «Tiny Tots», 8–13 yoshli bolalar uchun «Kids» bosqichda olib boriladi. Hozirgi kunda to'rt: qo'shish, ayirish, bo'lish, ko'paytirish amallarini abakus yordamida hisoblashni o'rganish ishtiyoqida bo'lgan bolalar soni tobora ortib bormoqda.

Har qanday foydali, qiziqarli faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar, o'quvchining maktabdagi boshqa fanlardan ham faolligini oshishiga yordam berishi ma'lum. Ba'zi mutaxassislar mental arifmetikani reklamasi zo'r «Biznes-proyekt» sifatida baholaydilar.

# MENTAL ARIFMETIKA – yodda hisoblash mashqi

Hozirgi kunda tobora omalashib borayotgan o'quv usullaridan biri mental arifmetikani o'rganayotgan 5 yoshli bolakaylar bunday amallarni soniyalarda yodda hisoblay olishi haqida eshitgandirsiz? Tabiiy savol tug'iladi: xo'sh, mental arifmetika o'zi nima? U bolaning aqliy rivojlanishiga chindan ham yordam beradimi yoki bu shunchaki tezkor ta'lim usullaridan birimi? Bu kabi savollar ko'pchiligingizni qiziqtirishi tabiiy.

Fan sifatida mental arifmetika bundan ikki ming yil ilgari Yaponiyada paydo bo'lgan. Bir qarashda xayolotga yaqindek tuyulishi mumkin, ammo ushbu ta'lim usulining rivojlanishi xayolot olamining mahsuli emasligi isbotlandi. Bugungi kunda miyaning har ikkala yarim sharini rivojlantiruvchi deb qaralayotgan ushbu usul dunyoning 52 davlatida qo'llaniladi.

Mental arifmetika ko'proq 4–6 yosh oralig'idagi bolalarga mos keladi. Bu vaqtda

da bolalar o'zaro muloqot qilishga, raqsga tushish va qo'shiq aytishga o'rgatiladi. Mashg'ulotlar

Olimlar mental arifmetika haqida yakuniy xulosa aytishga shoshilayotganlari yo'q. Og'zaki hisob foydali faoliyat. Ammo og'zaki hisoblash uchun abak (matematik uskuna)larning turi ko'p. Ularning qaysi biri samaradorligini aniqlash mushkul. Mental arifmetikani o'rganish ko'proq xususiylikka xos bo'lsa, matematikani o'rganish bu umumiylikka qaratilgan. Qanday usulda o'rgatilganda ham bolaning har qanday yutug'ida ustozning roli katta bo'lishini unutmaylik.

Matematikani o'zlashtirish qiyin bo'lgan bolalar uchun ham mental arifmetika foydalidir. Bola raqobat muhitida o'zini tutishga, mehnat qilishga, o'z ustida ishlashga o'rganadi. Miyasida hisob doskasini tasavvur qilib, matematik amallarni daqiqada bajarayotgan bola kelajakda matematik emas, boshqa sohaning yaxshi mutaxassisi bo'lib yetishishi ham mumkin. Keling, bu borada mutaxassislar fikrini ham tinglab ko'raylik.



**Farhod IBRAGIMOV, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti matematika fakulteti dotsenti:**  
– Mental arifmetika haqida ijtimoiy tarmoqlarda ko'plab maqolalarni kuzatib boraman. Buni arifmetikani o'rgatishning usullaridan biri, deb ta'riflagan bo'lardim. Ayrim ota-onalarning farzandlariga faqat birinchi bosqichni o'rgatib, bolamning miya faoliyatidagi barcha qirralarni ochilishiga imkon berdim, endi u olimpiadalarda qatnashsa bo'laveradi, degan fikrlari ham quloqqa chalinadi. O'n bosqichning faqat boshlang'ich bosqichini o'rgangan bolaning kelajakda yaxshi matematik bo'lmasa-da, hisobni biladigan bo'lib voyaga yetishiga umid qilaman.

**Farhod HAYDAROV, O'zbekiston Milliy universiteti, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa fanlar doktori, 2008-yilda matematika fani bo'yicha jahon olimpiadasi g'olibi:**

– Matematika fani bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro olimpiadalarda Xitoy, Rossiya, Amerika davlatlarining doimo birinchilikni olishi sababini bilasizmi? Bizda 5 ta savolga javob berish uchun 3 soat vaqt ajratilsa, jahon olimpiadalarida 3 ta savolga 5 soat vaqt ajratiladi. Nega, deysizmi? Chunki ushbu olimpiada savollarda mantiqiy fikrlash birinchi o'rinda turadi. Mental arifmetikada xayolan hisoblash mashqlarini abakus yordamida yechish o'rgatiladi. Faraz qiling, abakus bo'lmasa-chi, bola barmoqlarini havoga ko'tarib, abakusni tasavvur qilib hisoblay boshlaydi. Lekin o'rgananlari qancha muddat yodida saqlanishi ma'lum emas. Bolaning aqliy salohiyati oshirilayotgandir, ammo bizga haqiqiy matematiklar, mantiqiy matematik savollarni tezkorlik bilan yecha oladigan bilimdonlar kerak.

**Nigora YAXSHIBOYEVA, Moskva shahridagi «Abakus» o'quv markazi bitiruvchisi:**  
– «Target» o'quv markazimizning Toshkent shahrida hamda viloyatlarda filiallari bor. O'g'lim 238-umumta'lim maktabining 2-sinfida o'qiydi. Uni Uchtepa tumanida joylashgan filialimizdagi mashg'ulotlarga olib bordim. O'zim ham juda qiziqib qoldim. Hozirda o'quv markazida mashg'ulotlar olib boryapman. O'g'limning o'zgarlar fikrini tinglashni o'rganayotganini, muomala madaniyati shakllanib borayotganini kuzatib, quvonayman. Abakus yordamida hisoblashni katta qiziqish bilan o'rganyapti. Katta bo'lsam, odamlarning tishlarini davolayman, deya niyat qilayotgan o'g'limning kelajigidan umidim katta.

**Go'zal ABDISHUKUROVA, Toshkent kimyo texnologiya universitetining Oliy matematika kafedrasida assistenti, mental arifmetika bo'yicha Moskvada bo'lib o'tgan onlayn musobaqasi g'olibi:**  
– 2012-yilda O'zbekiston Milliy universiteti, matematika fakultetiga davlat granti asosida o'qishga qabul qilindim. 2016–2018-yilda magistratura bosqichini tamomladim. Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 29-umumta'lim maktabida matematika fanidan dars bera boshlaganimda, ta'lim maskanimiz rahbari Barno Bekmuhammedova mental arifmetikani o'rganishimni maslahat berдилar va maktabda to'garak ham ochdilar. O'quvchilik yillarim matematika ustozlarimdan olgan saboqlarim kechagidek yodimda. Mashg'ulotlar jarayonida talabalarimga o'sha amallarni kecha o'rgangandek tushuntirib beraman. Ammo abakusni tasavvur qilib, soniyalarda amallarni bajarish menga erishdek tuyuladi. Bolalar haqiqiy matematik bo'lishlari uchun ko'p bilim olishlari, matematik amallarni yechishni bir umr yodda saqlab qoladigan darajada o'rganishlari istardim.

**Aziz o'quvchilar, biz hozirgi kunda ota-onalar va bolalarning zo'r qiziqishiga sabab bo'layotgan mental arifmetika haqida xolisona fikr yuritdik. Bolani yoshlikdan biror foydali faoliyatga yo'naltirish, albatta, zarur. Aqliy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan bunday mashqlar o'z natijalarini ko'rsatadi, degan umiddamiz. Farzandlarimizning murakkab matematik amallarni zumda hisoblayotganliklari bilan chegaralanib qolmaylik. Zero, dunyo tamadduniga hissa qo'shgan buyuk mutafakkirlar ham bizning zamindan chiqqanligini unutmaylik.**

N. NAZAROVA



Har bir narsaning haqiqati uning mazmunidir.



– Yurtimizda kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ayniqsa, yoshlarni kitob mutolaasiga qiziqirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Men o'qitayotgan sinf o'quvchilari ham mutolaa borasida boshqa tengdoshlariga namuna bo'lmoqdalar, – deydi Buxoro viloyati, Qorovulbozor tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'qituvchisi Nigina opa Yo'ldosheva.

## O'QUVCHI UCHUN ENG YAXSHI SOVG'A NIMA BO'LISHI MUMKIN?

Albatta, bejirim va qulay o'quv qurollari-yu rang-barang kitoblar-da! Ayniqsa, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar Brayl yozuviga mo'ljallangan temir daftarlari bo'lishini juda orzu qilishardi. Kuni kecha imkoniyati cheklangan tengdoshlaringiz o'z maqsadlariga yetishdi.



Ular tahsil olayotgan poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 77-ko'zi ojiz bolalar maktab-internatida maxsus o'quv qurollari (pribor va grifel) topshirish marosimi bo'lib o'tdi. Janubiy Koreyaning «HYUNDAI EN-

GINEERING» kompaniyasi shartnoma asosida taqdim etgan maxsus o'quv qurollari respublikamizdagi jami 14 ta maktab-internati rahbarlariga ham topshirildi. So'ng, mehmonlar o'quvchilar bilan uchrashib, ularning quvonchiga sherik bo'lishdi.



Mazkur ta'lim dargohining 3-«A» sinf o'quvchisi Madina Nurillayevaning aytishicha, u endi temir daftarini faqat puxta bilimlari bilan to'ldiradi.

O'z muxbirimiz

O'quv dargohimiz qoshidagi Axborot-resurs markazi xodimlarining asosiy maqsadi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, ularning ona Vatanga bo'lgan muhabbati, sadoqatini mustahkamlash, ongiga milliy mafkura va milliy g'oyani singdirishdan iboratdir.

## KITOB, ITOBXON, UTUBXONA

Hozirda ARMda jami 20.530 ta adabiyot mavjud. Ulug' shoir va yozuvchilarning yubileylari oldidan mahalliy ijodkorlar bilan uchrashuvlar bo'lib o'tmoqda. Har oyda bir marta eng ko'p kitob o'qigan o'quvchilar rag'batlantirilib borilyapti. Malika Tursunboyeva, Hojiakbar Abdurahimov, Elbek Xolmatov kabi o'quvchilarimiz shahar va viloyat kitobxonlar ko'rik-tanlovlarida qatnashib, faxrli o'rinlarni egallashdi. Bunda kutubxona mudirasi Matluba Mallayevaning xizmatlari katta.

– 2018-yil dekabr oyida maktabimiz kutubxonasiga «Sharq ayoli» Xalqaro xotin-qizlar jamoatchilik fondi boshqarmasi tomonidan 300 dona badiiy asarlar hamda sertifikatlar topshirildi, – dedi kutubxona mudirasi Matluba Mallayeva. – Bu ezgu tashabbusga maktabimizning sobiq o'quvchisi – «Sharq ayoli» Xalqaro xotin-qizlar jamoatchilik fondi boshqarmasi raisi Saodat Tursunboyevaning bosh bo'lgani bizni yanada quvontirdi. Kitob – ulkan mo'jiza. Buni o'quvchilarga anglatish esa biz ustoz muallimlarning zimmamizda.

Saida SHOBO'TAYEVA,  
Jizzax viloyati, G'allaorol tumanidagi  
16-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

## MAKTABIMIZ BOG'BONI

Maktabimiz hovlisi katta bo'lgani bois, u yerda bog'dorchilik, poliz mahsulotlari yetishtirish bilan shug'ullanishning imkoni bor. Mehnatsevar Qobiljon Mahmudov o'quvchilarga ham bog'bonchilik sirlarini o'rgatib kelmoqda.



Maktabimizda issiqxona ham tashkil qilingan bo'lib, u yerda limon ko'chatlari hamda maktabimiz oshxonasida foydalanish maqsadida darmondorilarga boy ko'katlar, turli poliz mahsulotlari yetishtiriladi. Shuningdek, o'rik, gilos, olma, tut, yong'och kabi mevali daraxtlar ham bor.



Ta'lim maskanimizni ko'rkam bog'ga qiyoslasak arziydi. Rang-barang gullarni ko'rgan kishining bahri dili ochiladi. Qobiljondek mehnatsevar insonlar bor ekan, maktablar, mahallalar, qo'ying-chi, yurtimiz obod bo'lib boraveradi.

Ra'no QAHHOROVA,  
Jizzax viloyati, Sharof Rashidov tumanidagi  
12-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi



# MENING BUVIJONIM «MO'TABAR AYOL»

**Buvijonimning xonalariga har gal kirganimda, chiroyli ko'krak nishoniga ko'zim tushadi. Ushbu ko'krak nishoniga zarhal harflar bilan «Mo'tabar ayol» deb yozilgan.**

Mening buvijonim Muborak Teshaboyeva texnika fanlari doktori, Xalqaro Muhandislar Akademiyasi akademigi. Shuningdek, ular «Nuroni» jamg'armasi boshqaruvidagi «Olimlar guruhi» Kengashi a'zosi, Yakkasaroy tumani «Buvijonlar maktabi» hamda «Ota-onalar universiteti» raisi. Davlatimiz tomonidan davlat va jamiyat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, mamlakat taraqqiyotiga, oilaviy muhitni yaxshilashga, yoshlar o'rtasida ma'naviy-axloqiy muhit yanada yaxshilanishiga, milliy qadriyatlarimizni targ'ib qilishga o'zining munosib hissasini qo'shgan ayollarni rag'batlantirish maqsadida «Mo'tabar ayol» ko'krak-nishoni ta'sis etildi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu mukofot ilk bora o'z egalariga topshirildi. 290 nafar taqdirlanganlar orasida mening buvijonim ham bor edilar. Ularning ko'zlaridagi cheksiz hayajon va quvonchga, chehralaridagi



tabassumga qarab, ulardan voqealar tafsilotini eshitar ekanman, qalbimni cheksiz g'urur va iftixor chulg'ab oldi. Oradan biroz muddat o'tgach, quvonchimizga yana bir quvonch qo'shildi. Buvijonim birinchi darajali «Mehnat faxriysi» medali bilan mukofotlandilar. Buvijonim chin ma'noda mehnat faxriysi hisoblanadilar. Tinimsiz o'qib, izlanib, bilim ummonidan marvaridlar terdilar va fan doktori degan yuksak unvonga sazovor bo'ldilar. Urushdan keyingi og'ir yillarda bunday unvonga erishish qiyin, ammo sharafli edi. Tinib-tinchimas buvijonim hozirgi kunda ham jamiyat taraqqiyotiga o'zlarining munosib hissasini qo'shmoqdalar... Markaziga baxtning timsoli bo'lmish Humo qushining tasviri tushirilgan medalni tomosha qilar ekanman, shunday buvijonim borligidan faxrlanib ketdim.

**Iqbolxon MUHAMMEDOVA,**  
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumanidagi 144-umumta'lim maktabining 8-«B» sinf o'quvchisi

**Muhtaram Prezidentimizning yangi o'quv yili boshlanishi arafasida xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektoridagi nutqi yurtimizdagi barcha o'qituvchilarni to'lqinlantirib yuborgan bo'lsa, ajab emas.**

## ENG HURMATLI INSON BU MUALLIMDIR

Zero, Yurtboshimiz bu soha vakillarining dilidagi gaplarini gapirdilar: Maktab masalasini hayot-mamot masalasi deb baholadilar. Bugungi kunda o'qituvchilarga eng hurmatli, eng aziz, eng mo'tabar inson sifatida qaralayotgani ham ayni haqiqat.



Tan olishimiz kerak, keyingi yillarda o'qituvchining obro'-e'tibori, hurmati ancha tushib ketgandi. Shuning uchun ham kadr masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligi bejiz ta'kidlanmadi. Bugun o'qituvchining imtiyozini, huquqini oshirish borasida sa'y-harakatlar amalga oshirilayotgani biz o'qituvchi va murabbiylarni behad quvontirdi.

O'qituvchi va murabbiylarning o'zlari ham bilim va saviyalarini oshirishlari, jamoat ishlarida faol ishtirok etishlari, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasb egalarining obro'sini oshirishlari kerakligiga ham urg'u berildi.

Bu esa o'z navbatida, biz ustozlarni Yurtboshimiz tomonidan ko'rsatilayotgan ushbu g'amxo'rliklarga javoban o'z ustimizda ishlashdan, izlanishdan to'xtamay, imkoniyatlardan unumli foydalanib, buyuk kelajagimizning poydevorini mustahkamlashga munosib hissa qo'shish uchun astoydil mehnat qilishga undaydi.

**Mohira QODIROVA,**  
Andijon viloyati, Marhamat tumanidagi 26-umumta'lim maktabi rahbari

### Lesson 36

## ADJECTIVE OR ADVERB

### Choose the correct item

1. It was a (dangerously, dangerous) lake to swim in.  
The gas smelled (dangerously, dangerous).
2. Otabek performed (magnificent, magnificently).  
It was a (magnificent, magnificently) beautiful performance.
3. He was a very (sensible, sensibly).  
He acted very (sensible, sensibly).
4. I find this novel very (interesting, interestingly).  
It was (interesting, interestingly) written.
5. Madina worked (careful, carefully) with the sick brother.  
Madina was a very (careful, carefully) worker.
6. The mechanic's tools were (well/good).  
The foreman said that his work was (well/good)



## WAYS TO INCREASE TO YOUR INTELLIGENCE

**Read more - intelligence begins with reading. The more you will read, the more intelligent you will get.**

**Set goals - Goals create structure in life and only through proper structure can increase your intelligence.**

**Make Notes - The body remembers by doing. So by making notes on everything you do, you will increase memory and intellect.**



**Minimize «Bad» Television - Watching TV nowadays with all of its reality shows or just watching re-runs is one of the worst things you can do for your intelligence. While it can be relaxing you don't stimulate your thinking. Try tuning into a documentary or the news every now and then.**

Muhammadsharif FAYZULLAYEV



### Ingiliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

## THE PROUD BOY

### Reading time

There was once a very proud boy. He always walked through the village with his eyes turned down and his hands in his pockets. The boys used to stare at him, and say nothing; and when he was out of sight, they breathed freely. So the proud boy was lonely, and would have had no friends out of doors if it had not been for two stray dogs, the green trees, and a flock of geese upon the common.

One day, just by the weaver's cottage, he met the tailor's son. Now the tailor's son made more noise than any other boy in the village, and when he had done anything wrong he stuck to it, and said he didn't care; so the neighbors thought that he was very brave, and would do wonders when he came to be a man, and some of them hoped he would be a great traveler, and stay long in distant lands. When the tailor's son saw the proud boy he danced in front of him, and made faces, and provoked him sorely, until, at last, the proud boy turned round and suddenly boxed the ears of the tailor's son, and threw his hat into the road. The tailor's son was surprised, and, without waiting to pick up his hat, ran away, and sitting down in the carpenter's yard, cried bitterly. After a few minutes, the proud boy came to him and returned him his hat, saying politely.

«There is no dust on it; you deserved to have your ears boxed, but I am sorry I was so rude as to throw your hat on to the road».

«I thought you were proud,» said the tailor's son, astonished; «I didn't think you'd say that I wouldn't».

«Perhaps you are not proud?»

«No, I am not».

«Ah, that makes a difference,» said the proud boy, still more politely. «When you are proud, and have done a foolish thing, you make a point of owning it».

«But it takes a lot of courage,» said the tailor's son.

«Oh, dear, no,» answered the proud boy; «it only takes a lot of cowardice not to,» and then turning his eyes down again, he softly walked away.





**Kishi uchun toj va boshqalar ziynat bo'lmaydi,  
balki unga ziynat o'ziga bo'lgan adab va hayodir.**

Alisher NAVOIY

## YURTINGA KELGANMISIZ?

Yurtimga kelganmisiz?  
Chiroyin ko'rganmisiz?  
Buloqlari shifobaxsh,  
Bir tatib ko'rganmisiz?

Yurtimiz ozod, obod,  
Beg'ubor osmonimiz.  
Serquyosh diyoringma,  
Bir qiyo boqqanmisiz?

To'yida bo'lganmisiz?  
Palovin yeganmisiz?  
Qalbi quyosh xalqiga,  
Tasanno, deganmisiz?

**Gulzoda UMARJONOVA,**  
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi  
35-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

## O'ZING YURAK, O'ZING JON-U TAN

Biz tayanching bo'lgaymiz sening,  
G'ururimiz, faxrimiz, Vatan!  
Senga sodiq bo'lamiz har dam,  
O'zing yurak, o'zing jon-u tan.

Sadoqating qalbimda hamon,  
Baxting bordir hur tilagimda.  
Seni doim asrab yuraman,  
Mehr to'la bu yuragimda.

Hamrohimdir mangu she'riyat,  
Intilaman cho'qqilar tomon.  
Vatan, sening quchoqlaringda,  
Iqtidorim aylay namoyon.

**Saodat SAPAROVA,**  
poytaxtimizning Mirobod tumanidagi  
125-umumta'lim maktabining  
10-«D» sinf o'quvchisi



## BAXT BU...

Quyosh – mash'al olamga,  
Sog'lik – yurak odamga.  
Tinchlik – qanot bayramga,  
Tenglik – kenglik qadamga.  
Mehnat – hayot qanoti,  
Do'stlik – birlik davlati.  
Mehr-muhabbat – saodat,  
Ona yurtga sadoqat.  
O'zbekistonda har vaqt,  
Yashashning o'zi bir baxt!



## QIZIQ SAVOL

Orol dengizmi yo Orol?  
Bezavol qiziq bir savol.  
Jo'shib tursa tengsiz dengiz –  
Jimib qolsa, Orol deymiz.

## BU HAM SAYOHAT

Amerikaga qushdek yeldim,  
Los-Anjelosga tez keldim.  
– Kecha uyda eding-ku...  
– Televizorda sayr qildim.  
Bu – «Dunyo bo'ylab» kanali,  
Hamrohim bo'lgan mahali.  
Ma'lumot beradi menga,  
Ko'rmaganim ko'proq halli.

Anvar MIRZAZODA

## UCH RANGDA

Ko'k rang – ko'ksamo, keng osmon musaffo,  
Oy, o'ng ikki yulduz – burj toza havo.  
Oq rangi – oppoq tong poklikdan nishon.  
Do'stlikda mahkam, beg'ubor kuch-ishonch,  
Yashil rang, ko'm-ko'k yashnagay tuprog'i,  
Bu O'zbekistonim ramziy bayrog'i.

## ODOBNING BOSHI...

Maktabda o'qituvchilarimiz bizga ta'lim bilan bir qatorda tarbiya ham berishga astoydil harakat qilishadi. Kattalarga salom berish, kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'lish lozimligini uqtirishadi. Shundanmi, ko'chada yurganimizda yoshi ulug'larni ko'rsak, salom bermay o'ta olmaymiz. Lekin ayrim tengdoshlarim kattalarga salom bermay o'tib ketadi. Yoshi ulug'lar ham bu holdan negadir ranjmaydi. Chunki u bunday holatlarga o'rganib qolgan. Yaqinda bir holatga guvoh bo'ldim, ko'chada o'ynab yur-

gan 10 yoshli bola 50–60 yoshlar orasidagi bir onaxonga salom bermay, 30 yoshli harbiy odamga salom berdi. Bilmadim nega shunday... Yuqoridagi savollarga aniq va lo'nda javob yo'q. Balki bolakay onaxonni tanimayman, harbiy yigit esa qo'shnimiz bo'ladi tarzida javob berar. Lekin notanish onaxonga ham bir og'iz salom bersak, buning nimasi yomon?!



**Nazokat  
ULUG'BEKOVA,**  
Sirdaryo viloyati,  
Boyovut tumanidagi  
19-umumta'lim makta-  
bining 6-sinf o'quvchisi

# SINGLIM DOSTON YOD OLDI

**Biz oilada olti kishimiz. Yo'ldoshali bobom hozirgi kunda nafaqada, dadam Ulug'bekjon jarroh, onam Sohıboxon hisobchi. Bobom va ota-onam biz farzandlarning yaxshi o'qishimiz uchun barcha sharoitlarni yaratib berishyapti.**



Biz rus tiliga ixtisoslashtirilgan 2-umumta'lim maktabida bilim olamiz. Singlim Mubinaxon 3-sinfga o'tdi. Mo'minaxon singlim 5-maktabgacha ta'lim muassasasiga boradi. Yozgi ta'tilda ingliz tili, matematika va rus tili fanlaridan qo'shimcha darslarga bordik. Hozirda o'zim yozgan ertaklarimni rus tiliga bemalol tarjima qila olaman. Ingliz tiliga tarjima qilishni ham o'rganyapman. Kichik singlim Mo'minaxon Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonini yod oldi. Biz opa-singillar ko'p she'r yod olamiz, singlimiz baland ovozda she'r yodlayotganimizni eshitib

o'tiradi va u ham qiziqib she'rlarni yodlab oladi. Men yana portret uslubida rasm chizishga qiziqaman. Har yili maktabimizda buyuk allomalarning tavallud ay-yomlariga bag'ishlanib turli tadbirlar o'tkaziladi va men ham chizgan portretlarim bilan qatnashaman. Ustozlarim esa doimo olqishlab maqtab qo'yishadi. Ijodiy ishlarim bilan sevimli gazetamda qatnashsam, deyman.

**Azizaxon  
YO'LDOSHALIYEVA,**  
Farg'ona viloyati,  
Beshariq tumanidagi  
2-umumta'lim makta-  
bining 5-sinf o'quvchisi



## NIYATING HAMROH BO'LSIN, QILICHBEK!

**Kubalik ajoyib grossmeyster Raul Kapablanka shaxmatni «Shunchaki o'yin emas, bu vaqt o'tkazishning ma'lum darajada badiiylik va ilmiylikka asoslangan intellektual foydali usuli. Jismoniy mukammallik uchun sport qanchalik muhim bo'lsa, aqliy salohiyat uchun shaxmat shunchalik muhimdir. U insonlarga xos alohida xususiyatlarni rivojlantirish va aqlni mashq qildirishning qiziqarli hamda qulay yo'lidir», deya ta'riflagan edi.**

Zero, Davlatimiz rahbari tomonidan ishlab chiqarilgan ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalar-dagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusdan biri ham yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning jismoniy imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan. Ulardan unumli foydalanib, sportda yutuqlarga erishayotgan tengdoshlaringizdan biri Qilichbek Nazariyevdir. U Farg'ona viloyatining Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining 6-«A» sinfida o'qiydi. Qilichbek shaxmat bo'yicha maktabning faxrii sanaladi. U tuman, shahar va viloyat birinchiliklarida faol qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritib kelmoqda. Kuni

kecha «Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!» shiori ostida Vatanimizning 28 yilligi munosabati bilan sportning shaxmat turi bo'yicha o'tkazilgan «Dang'ara open» birinchiligida 1-o'rinni qo'lga kiritgan Qilichbekka tuman hokimi S. Aminjonov faxriy yorliq va velosiped sovg'a qildi.

–Shaxmat dunyoqarashni kengaytirishga, fikrlashga, xotirani mustahkamlashga yordam beradi,– deydi Qilichbek. –Uni o'ynagan kishida tanqidga munosabat, mustaqil xulosa chiqarish qobiliyati shakllanar ekan. Shu sababli, shaxmat o'ynashni yaxshi ko'raman. Bu yutuq'im bilan meni barcha do'stlarim, ota-onam



ham tabriklashdi. Bu birinchilikda yutuqqa erishishimda jismoniy tarbiya fani ustozlarim Sirojiddin G'oyibnazarov hamda Mashrabjon Ahmedovning xizmatlari katta. A'lo baholarga o'qib, sport bilan do'stlashib, mahoratimni oshirib, respublika va jahon chempionatlarida g'olib bo'lib, qishlog'im, qolaversa, yurtimiz dovruq'ini olamga yoysam, deyman.

Niyating hamroh bo'lsin, Qilichbek!

Nodira YORMAT qizi

## BEHZODBEK 2 TA OLTIN MEDALNI QO'LGA KIRITDI

**Hindistonda velosportning trek yo'nalishi bo'yicha kattalar va o'smirlar o'rtasida Osiyo kubogining birinchi kunida terma jamoamiz yuqori natijani qo'lga kiritdi.**

Vakillarimiz o'smirlar o'rtasida kechgan poygalarda 2 ta oltin va 1 ta kumush medallariga sazovor bo'lishdi: ikkita oltin medal sohibi xorazmlik Behzodbek Rahimboyev skretch va ochkolar bo'yicha guruh poygasi yo'nalishlarida qit'amizda tengsiz ekanini isbotladi. Sirdaryolik Yanina Kuskova jahon reytingining uchinchi pog'onasiga ko'tarilib, skretch bahsida kumush medalni qo'lga kiritdi.

## 5 TA MEDAL HAMYURLARIMIZDA

**O'zbekiston Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi, O'zbekiston qilichbozlik federatsiyasi, Xalqaro qilichbozlik federatsiyasi (Fle) hamkorligida poytaxtimizdagi Ginnastika bo'yicha ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida qilichbozlik bo'yicha «Satellit» xalqaro turniri tashkillashtirildi.**

Mazkur musobaqaning rapira bahslarida hamyurtimiz Umida Ilyosova bronza medalini bilan taqdirlandi, yosh qilichbozimiz Yana Alborova esa kumush medalni qo'lga kiritdi.

Terma jamoamizdan Malika Hakimova hamda Veronika Rojkova ayollar o'rtasida shpaga bahslarida bronza medaliga ega bo'lishdi. Yana bir hamyurtimiz Hasan Badunov shpaga bo'yicha erkaklar o'rtasidagi bellashuvlarda kumush medalni qo'lga kiritdi.



## 7 YOSH DAN 70 YOSH GACHA – MARAFONDA!

**Bugungi kunda Toshkent shahrida aholining turli qatlamlari orasida sportni keng targ'ib etib, jamiyatda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini yanada kuchaytirish, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni zararli odatlardan asrash hamda har bir mahalla, ta'lim muassasalar, mehnat jamoalarida jismoniy tarbiya va sport faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda.**

Jumladan, madaniyat va istirohat bog'larida, sport maydonlarida «Poytaxt ligasi», «Sport yulduzlari poytaxt yoshlari bilan», «Sport sen bilan», «Sport birlashtiradi», «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» kabi ommaviy sport tadbirlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Endilikda poytaxtimizdagi mavjud har bir

Jumladan, madaniyat va istirohat bog'larida, sport maydonlarida «Poytaxt ligasi», «Sport yulduzlari poytaxt yoshlari bilan», «Sport sen bilan», «Sport birlashtiradi», «Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» kabi ommaviy sport tadbirlari muntazam o'tkazilib kelinmoqda. Endilikda poytaxtimizdagi mavjud har bir

Yaqinda Toshkent shahar Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi tomonidan aynan ushbu tashkil etilgan havaskor sport klublarining a'zolarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Sog'lom turmush tarzi mening nigohimda» nomli ommaviy sport-sog'lomlashtirish tadbiri tashkillashtirildi.

7 yoshdan 70 yoshgacha sportsevarlar ishtirok etgan tadbirning yugurish va yurish marafonida poytaxtimizdagi barcha bolalar va o'smirlar sport maktablari direktorlari ham faol ishtirok etdi.

Nurbek QIDIRALIYEV




madaniyat va istirohat bog'larini, bolalar va o'smirlar sport maktablari doimiy ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchi 26 ta havaskor sport klublari tashkil etildi. Mazkur sport klublariga 3000 ga yaqin turli yoshdagi fuqarolar, shu jumladan, yoshlar jalb qilindi.

Yaqinda Toshkent shahar Jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi tomonidan aynan ushbu tashkil etilgan havaskor sport klublarining a'zolarini qo'llab-quvvatlash maqsadida «Sog'lom turmush tarzi mening nigohimda» nomli ommaviy sport-sog'lomlashtirish tadbiri tashkillashtirildi.

7 yoshdan 70 yoshgacha sportsevarlar ishtirok etgan tadbirning yugurish va yurish marafonida poytaxtimizdagi barcha bolalar va o'smirlar sport maktablari direktorlari ham faol ishtirok etdi.



## BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR! «QARDOSH DIYOR» TOPQIRLIK MASHQLARI



### CHAYNKROSSVORD

1. Qozog'iston hududini ham egallagan Markaziy Osiyo-dagi cho'l. 2. Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'idagi yarim-orol, Qozog'iston tarkibidagi viloyat. 3. Ili daryosi yaqinidagi nurchilar shahri. 4. Sharafiga Sayram shahrida me'moriy obida bunyod etilgan shoir, «Devoni hikmat» asarini yozib qoldirgan tasavvufning mashhur namoyandasi. 5. Ko'plab boqiladigan chorva jonivori. 6. Balxash ko'liga quyiluvchi daryo. 7. O'qish-o'rganish va tadqiqot olib borish bilan erishiladigan bilim. 8. Bilimlar maskani. 9. Qozog'iston hududida joylashgan dunyoda eng birinchi va eng katta kosmodrom. 10. Qozog'iston bilan diplomatik aloqalar bog'lagan markaziy Afrikadagi poytaxti Kigali hisoblanuvchi Respublika. 11. Katta sug'orish kanali. 12. Qozog'istonning shimol tomonidan chegaradosh davlat. 13. O'rmon yirtqichi. 14. Tanasi qattiq, sersoya, suvsizlikka chidamli daraxt. 15. Yaylovda mayda mollarni boquvchi chorvador. 16. Qozog'istonda qazib olinadigan, erishi qiyin, kumush kabi oq yaltiroq, qattiq metall. 17. Bir davrlar Orol dengiziga mansub bo'lgan kamyob baliq turi. 18. Tolning tik o'suvchi turi. 19. Yer yuzasining tekislik, tepalikka nisbatan baland ko'tarilgan hududi. 20. Ko'p miqdorda yetishtiriladigan hosil. 21. Suv yo'li. 22. Ko'mir konchilari shahri, viloyat markazi. 23. Mamlakat janubidagi daryo, Sirdaryoning o'ng irmog'i. 24. Qo'shtuyoqli, kavsh qaytaruvchi cho'l hududlarida tarqalgan jonivor. 25. Qozog'iston Respublikasi davlat tili.

### «ABAY ASARLARI» KRIPTOGRAMMASI

Shaklning o'rta qismidagi raqamlarda qozoq she'riyatidagi yulduzi, o'z xalqining yozma adabiyotiga asos solgan ma'rifatparvar ijod sohibi Abay yozib qoldirgan to'rt doston, she'r va qirq to'rtta katta-kichik lavhalardan iborat falsafiy hikoyalarning nomlari yashiringan, ularni quyidagi kalit so'zlar javoblari orqali bilib oling.

#### Kalit so'zlar:

1. Dunyoga taniqli qozoq she'riyatining ulkan namoyandalaridan biri – O'ljas 4, 16, 9, 3, 8, 7, 14, 10, 14, 6.
2. Abay ilk tahsil olgan Yettisuvdagi madrasa nomidan – Ahmad 1, 2, 11, 14.
3. Abay ijodiga mansub hikmatli so'zdan: «Odamzod tirlikni davlat bilsin, 3, 17, 9 topsin, mol topsin, halol yursin».
4. Abay asarlarini chuqur o'rgangan XIII asrda yashab ijod qilgan fors shoiri va mutafakkiri – 4, 3, 15, 5, 2, 8.
5. Bo'lg'usi shoir falsafiy qarashlari bilan tanish bo'lgan, miloddan avvalgi 469–399-yillarda yashagan yunon faylasufi – 4, 16, 17, 1, 14, 12.
6. Qozoq xalqiga mansub xalq og'zaki ijodi asosida aytiladigan qo'shiq – 18, 9, 3, 1.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

### Pazanda qizgal!



Aziz qizlarjon! O'qish davri boshlanib, shirinliklar pishirishga biroz vaqtingiz yetmay qolyaptimi? Aslo qayg'urmang. Bugun sizlarga kamxarjli, oson va tezda tayyorlanadigan yong'oqli pirogni o'rgatamiz.

## YONG'OQLI PIROG

Buning uchun bizga: uch dona tuxum, 1 stakan shakar, bir chimdum tuz, 250 gramm smetana, 1 choyqoshiq iste'mol sodasi, bir choyqoshiq limon kislotasi, bir yarim stakan un, 100 gramm qora mak hamda 200 gramm chaqilgan yong'oq mag'zi kerak bo'ladi.



Ish avvalida uchta tuxum, shakarni solib, yaxshilab aralashtiramiz. So'ngra, tuz, smetana solinadi. Iste'mol sodasini limon kislotasi bilan so'ndirib, uni ham idishga solamiz va 100 gramm mak, un ketma-ketlikda solib, yaxshilab aralashtiramiz. Bo'tqa holatiga kelgan aralashmani kichikroq qolipga solib, 180 haroratda qizdirilgan gaz pechida pishiramiz. Shirinlik pishungiga qadar krem tayyorlaymiz. Kremiga 200 gramm sariyog', yarim banka quyultirilgan sut kerak bo'ladi. Ikkinchi yaxshilab aralashtirib, krem hosil qilinadi. Pirogni issiqligida o'rtasidan ko'ndalangiga kesib, orasiga krem suramiz. Ustiga ham krem surib, maydalangan yong'oq mag'zini bir tekisda sepamiz.

**Yoqimli ishtaha!**

NARGIZA tayyorladi

8

16-sentyabr 2019



**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

**Bosh muharrir**  
Feruz A DILOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0208-raqami bilan 2019-yil 10-iyunda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**

Alisher S'ADULLAYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruz JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Sayyora QODIROVA

**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Sahifalovchi-dizayner**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosma-xonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga bosmaxona mas'ul. Manzillimiz va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011. Obuna indeksi: 198.  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
e-mail: [tongyulduzi1929@umail.uz](mailto:tongyulduzi1929@umail.uz)  
telegram: t.me/tongyulduz  
Adadi - 5896  
Buyurtma - V 3764

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun unobuni rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel./faks: (99871) 244-63-08